bo‘lib turibdi. Kognitiv tilshunoslikda konseptlar tasnifiga turlicha yondashilgan, lekin ularning birontasi ham kognitiv tilshunoslar tomonidan yakdillik bilan qabul qilinmagan va hanuzgacha munozarali masala sifatida qolib kelmoqda. Shuni ta’kidlashimiz joizki, oxirgi yillardagi lingvokulturologik tadqiqotlarda olamning lisoniy manzarasini o‘rganish yo‘nalishida faol tadqiqotlar amalga oshirilib kelmoqda. Olam manzarasi (jumladan, olamning lisoniy manzarasi) tushunchasi insonning olam haqidagi tasavvurlarini o‘rganish asosida amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ҳаитов А. “Тил – миллатнинг маънавий бойлиги”. “Халқ сўзи” газетаси. https://xs.uz/uzkr/post/til-millatningmanaviy-boyligi.

(2). Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2015, 3. 3 – 10-бетлар.

(3). Юлдашев А.Г. Оламни лисоний концептуаллаштириш. “Хорижий филология”, 2020, 4, 61–62-бетлар.

(4). Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании. “Филологические науки”, Москва, 2001, № 1, с. 64.

(5). Маслова В.А. Лингвокультурология. М., “Academia”, 2001, с. 17; Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... “Ўзбек тили ва адабиёти, Тошкент, 2012, 5, 3–16-бетлар; Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение. М., “Флинта”, 2014, с. 8.

(6). http //ph.ras.ru//elib 0215 html: Новая философская энциклопедия.

(7). Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. М., “Художественная литература”, 1979, 424 с.

(8). Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008, 3-бет.

(9). Гумбольдт В. фон. О пределах государственной деятельности: пер с нем. Челябинск, “Социум”, М., 2003, 195 с.

(10). Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 2012, 5-, 6–7-бетлар; 9-бет; Седов К.Ф. Дискурс и личность. М., “Лабиринт”, 2004, с. 5.

(11). Abduraximova Farida Komiljon qizi. Lingvokognitologiya: til va tafakkur. Results of National Scientific Research International Journal. https://scholar.google.com/citations

Ishanjanova Munosibxon Saidahmadovna (Andijon davlat Chet tillari instituti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

“BOBURNOMA”NING FRANSUZCHA TARJIMALARIDA ETNOGEOGRAFIK BIRLIKLARNING AKS ETISHI

Annotatsiya.*Mazkur maqolada «Boburnoma»ning fransuzcha tarjimalari kontekstida etnogeografik birliklarning aks etish masalasi o‘rganilgan. Asarning tarjimasi davomida muallif Bobur tomonidan ifodalangan etnik hududiy va geografik birliklarning qanday tasvirlanganligi tahlil qilinadi. Shuningdek, fransuz tilidagi tarjima jarayonida etnogeografik terminologiyaning saqlanishi yoki o‘zgarishiga ham urg‘u berib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *“Boburnoma”, tarjima usullari, transliteratsiya, etnogeografik birlik, geografik muhit.*

Ишанджанова Муносибхон Саидахмадовна (доцент Андижанского государственного института иностранных языков, доктор философии (PhD) по филологическим наукам)

ОТРАЖЕНИЕ ЭТНОГЕОГРАФИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ВО ФРАНЦУЗСКОМ ПЕРЕВОДЕ “БАБУРНАМЫ”

Аннотация. *В данной статье исследуется вопрос отражения этногеографических единиц в контексте французского перевода «Бабурнамы». В ходе перевода произведения анализируется, как описываются этнические территориально-географические единицы, представленные автором Бабуром. Также подчеркивается сохранение или изменение этногеографической терминологии в процессе французского перевода.*

Ключевые слова: *“Бабурнама”, методы перевода, транслитерация, этногеографическая единица, географическая среда.*

Ishanjanova Munosibkhon Saidakhmadovna (Associate professor of Andijan State Institute of foreign languages, Doctor of philosophy in philology (PhD)

THE REFLECTION OF ETHNOGEOGRAPHIC UNITS IN THE FRENCH TRANSLATIONS OF “BOBURNOMA”

Annotation. *This article deals with the question of the reflection of ethnogeographic associations in the context of the French translations of the “Baburnama”. During the translation of the work, the author*

analyzes how the ethnic territorial and geographical units represented by Babur are described. The emphasis is also placed on the preservation or transformation of ethnogeographic terminology in the process of French translation.

***Keywords**: "Baburnama", translation methods, transliteration, ethnogeographic units, geographic environment.*


Kirish. "Boburnoma" asarida Bobur o'zining shaxsiy tajribalari, hukmronligi ostidagi hududlar va xalqni tasvirlab, bir vaqtning o'zida, o'zining etnik, geografik va ijtimoiy muhitini ifodalaydi. Boburning yozganlari nafaqat o'z vaqtidagi siyosiy va ijtimoiy sharoitlarni, balki uning o'zi va xalqlari o'rtasidagi etnik-geografik bog'lanishlarni ham yoritadi.

Etnogeografik birlik "Boburnoma" asarida ikki asosiy aspektda namoyon bo'ladi:

1. Boburning etnik kelib chiqishi va turli xalqlar o'rtasidagi bog'lanishlar. Bobur o'zini turk, mo'g'ul va temuriy sulolasining a'zosi sifatida tanitadi. Boburning etnik kimligi va uni tashkil etgan turli etnik guruhlar, o'zining hududiy birliklarida qanday yashayotganligini va ular o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni o'z asarida aks ettiradi. Boburning yozganlarida ko'plab etnik guruhlar va ularning hududiy yashash joylari haqida tasvirlar bor. Bu guruhlarning hayoti va bir-biriga bo'lgan munosabatlari, shuningdek, ularning madaniyati va urf-odatlari o'rtasidagi farqlarni ko'rsatib beradi. Hindistonga ko'chib kelganida, u yerning geografik va ijtimoiy xususiyatlarini o'rganib, u yerda yashovchi hindular, musulmonlar, turklar va boshqa etnik guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tasvirlaydi.
2. Geografik jihatlar va turli iqlimlar qiyosiy bog'lanishi. Bobur o'z asarida turli geografik hududlarga sayohat qilgan va ularning har birida o'zining etnik, madaniy va geografik jihatlarini kuzatgan. Jumladan, "Boburnoma"da Qobul (Afg'oniston) viloyatining geologik, iqlimiy va geobotanik jihatlari bo'yicha ko'plab misollar keltirilgan. H.H.Hasanov, bu asarni Boburning geografik bilimlarining eng muhim qismlaridan biri sifatida baholaydi [1;33-b.].

Tahlil va natijalar. H.H.Hasanov o'z tadqiqotida, Boburning hayoti va ijodi, shuningdek, uning tabiiy va tarixiy geografiya, iqlimshunoslik, gidrologiya sohalaridagi kashfiyotlari va tadqiqotlarini o'rgangan. U asarda berilgan hayvonot va o'simlik dunyosi, topografiya, toponimiya va terminologiya haqida ham muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Bundan tashqari, tadqiqotchilar Bobur va Beruniy kabi olimlarning hayoti va ilmiy meroslarini solishtirilib o'rganganlar, "Boburnoma"da yirik geografik hududlarning xaritalari ham ishlab chiqilgan.


Biz o'z tadqiqotimizda «Boburnoma»ning leksik qatlamini ikkiga ajratishni ma'qul deb bildik. Bular: a) onomastik leksika, bunda nomlar atoqli otlarga tayansa; b) apellyativ leksika turdosh otlarga tayanadi. Ushbu tasniflarga tayanib o'rganilganda ulardan appelyativ leksika milliy-madaniy xususiyatlari tarjima asarlarda murakkablik kasb etishi kuzatiladi. Jumladan, "Boburnoma" asarida etnografik birliklarning lingvistik tahlili, ayniqsa, ularning semantik xususiyatlarini o'rganish, xalqning milliy, etnik, ijtimoiy-siyosiy va madaniy tarixini, shuningdek, tilning tarixiy rivojlanishi va evolutsiyasini o'rganishda muhim rol o'ynaydi.



Olimlar tomonidan “Boburnoma”ning leksik tarkibi tadqiqi etilar ekan, turlicha statistik tahlillar olib borilgani kuzatiladi. Jumladan, M.Hoshim antroponim, toponim, etnonim, fitonim va zoonimlarni o‘rganadi [2].

R.Rasulov esa “Boburnoma”da, taxminan, 15 ming so‘zdan foydalanilganini va geografik nomlar 1000 dan ortiq bo‘lishini ta’kidlagan, shu bilan birga, u 1800 dan ortiq odam nomlariga urg‘u bergan [3;44-b.].

Z.Xolmonovaning “Boburnoma” leksikasi mavzusidagi tadqiqoti davomidagi lingvostatistik tahlil yuqorida qayd etilganlardan farqli natijani ko‘rsatgan. Olima “Boburnoma”da 14728 ta so‘z qo‘llanganligini ta’kidlaydi. Shundan 4007 tasi (asar leksikasining 27,2 %)ni nomlar tashkil qilishini aytadi va uning lug‘at tarkibini quyidagicha tasnif etadi [4]:



Bobur merosini o‘rganish nihoyatda muhim sanaladi, chunki “Boburnoma” o‘zbek tilida yaratilgan birinchi tabiiy va tarixiy geografik asarlardan biri hisoblanadi. Bobur asarda geografik jihatlarni yoritar ekan, unda afg‘on, hind va boshqa mamalakatlarda safari davomidagi uchratgan hayvonot, o‘simlik olami, iqlim sharoiti kabilarni Samarqand, Andijon, Shahrisabz kabi o‘z yurtidagi geografik sharoit bilan qiyoslab beradi. H.H.Hasanovning fikriga ko‘ra, “Bobur o‘zbek tilida birinchi bo‘lib Farg‘ona, Samarqand, Afg‘oniston va Hindistonning geografiyasini tasvirlagan olimdir” [1;60-b.].

Misol uchun, Bobur “Boburnoma” asarida Qobul shahrini ta’riflaganda, Samarqand bilan quyidagi tarzda taqqoslaydi: “Qobul havosidek, havolik yer olamda ma’lum emaskim, bo‘lg‘ay. Yozlarda kechalari po‘stinsiz yotib bo‘lmas, qishlar agarchi qori aksar ulug‘ tushar, vale mufrit sovug‘i yo‘qtur. Samarqand va Tabriz ham xushhavoliqda mashhurdur, vale mufrit sovuqlari bordur” (Boburnoma. 39-b.). Fransuz tilida A.Pave de Kurtey «Boburnoma »ni dastlabki tarjimoni sanalsa-da, Jan-Lui Bake-Gramon tarjimasi nisbatan mukammal va to‘liq sanaladi. Yuqoridagi misol J.Bake-Grammon tarjimasida quyidagicha keltiriladi: Le climat ici est très agréable. On n’en connaît pas dans le monde qui le vaille. Même pendant les chaleurs, on ne saurait dormir la nuit sans pelisse. L’hiver, bien que la neige tombe généralement en abondance, le froid n’est pas excessif. Samarcande et Tabriz sont aussi renommées pour leur climat agréable, mais le froid y est intense (Livre de Babur. 133 p.). Mazkur tarjimada mazmun aynan so‘zma-so‘z tarjima usuli orqali berilgan faqat «Qobul havosidek, havolik yer olamda ma’lum emaskim, bo‘lg‘ay» jumlasi grammatik o‘zgarishga uchragan, ya’ni ushbu ma’no ikki sodda gap shaklida chiqarilgan. «Le climat ici est très agréable. On n’en connaît pas dans le monde qui le vaille». Shuningdek, “Qishi mahkam sovuqtur, qori agarchi Qobul qoricha tushmas. Yozlar yaxshi havosi bor, agarchi Kobulcha yo‘qtur” (Boburnoma. 105-b.) deb ta’kidlaydi. Tarjimasi: «A Samarcande, il fait en hiver un froid rigoureux, bien que la neige n’y tombe pas abondamment qu’a Kaboul. L’ete, le temps y est beau, bien qu’il ne vaille pas celui de Kaboul», bu tarjimada ham so‘zma-so‘z tarjima usuli qo‘ llangan va Boburning taqqoslab bergan tasviri kuzatiladi. Tarjimalardan har ikki holatda ham tarjimon Qobul va Samarqandning o‘ziga xos iqlimini ifodalay olgan. Bunda asar o‘quvchisi ko‘z o‘ngida Samarqand havosi va Kobulda qor bo‘lganda ham sovuq Samarqand iqlimi darajasida emasligi taqqoslanishi uning qishi nisbatan yumshoqligi haqida tassavur uyg‘otadi.

Xulosa. Bugungi tilshunoslikdagi tendensiya yangi yondashuvlardan foydalangan holda badiiy asarlarda etnogeografik atamalar bilan bog‘liq tadqiq etilgan bo‘lsa-da, ularni: a) etnotoponimlar (joy nomlari); b) etnooykonimlar (aholi punktlari nomlari); d) etnogidronimlar (suv obyektlari nomlari); e) etnooronimlar (tog‘ nomlari); f) etnofitonimlar (o‘simlik nomlari); g) etnozoonimlar (hayvonlar nomlari) tahlilga tortilmagani tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Hasanov H.H. Tanlangan asarlar. 1-jild. G‘oya muallifi va to‘plab, nashrga tayyorlovchi M.M.Avezov. T.; “VNESHINVESTPROM”, 2019, 335-bet.

(2). Ҳошим М. Беш юз йиллик қомус. “Тафаккур”, 2003, № 1, 24–25-бетлар.

(3). Расулов Р. Бобур–ўзбек тилининг софлиги учун курашувчи. Бобур ва ўзбек миллий маданияти тараққиётининг айрим масалалари. Андижон, 1993, 44-bet.

(4). Холмонова З. “Бобурнома” лексикаси. Тошкент, “Фан”, 2007.

(5). Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Тошкент, “Ўқитувчи”, 2008, 288-бет.

(6). Jean-Louis BACQUE-GRAMMONT. Le livre de Babour. Paris, 1985.

Salayeva Quvonchoy (Urganch davlat universiteti magistranti; e-mail: salayevaquvonchoy8@gmail.com),
Bahodirova Feruza (Urganch davlat universiteti “Fakultetlararo chet tillari” kafedrasi dotsenti, PhD)

KONSEPTUAL METAFORANING TILSHUNOSLIK HAMDA ADABIYOTSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. *Maqolada kontseptual metaforaning tilshunoslik va adabiyotshunoslikdagi ahamiyati ko‘rib chiqilib, uning sof badiiy yoki ritorik vosita emas, balki kognitiv va lingvistik vosita sifatidagi roliga e’tibor qaratiladi. An’anaviy metafora nazariyalarini muhokama qilishdan boshlab, metaforani she’riy va majoziy til bilan cheklaydigan klassik qarashlarni tanqid qiladi. Zamonaviy tadqiqotlarga asoslanib, u “quvr metaforasi”ni kiritgan Maykl Reddi va konseptual metafora nazariyasini ishlab chiqqan Jorj Lakoff kabi olimlarning hissalarini ta’kidlab, inson tafakkuridagi manba va maqsad sohalari o‘rtasidagi tizimli xaritalashni ta’kidlaydi.*

Kalit so‘zlar: *metafora, konseptual metafora, lingvistik nazariya, klassik nazariya, kognitiv xususiyat, xaritalash.*

ЗНАЧЕНИЕ КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ МЕТАФОРЫ В ЛИНГВИСТИКЕ И ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

Аннотация. *В статье рассматривается значение концептуальной метафоры в лингвистике и литературоведении, акцентируется внимание на ее роли как когнитивного и лингвистического инструмента, а не чисто художественного или риторического приема. Начиная с обсуждения традиционных теорий метафоры, авторы критикуют классические взгляды, которые ограничивают метафору поэтическим и образным языком. Опираясь на современные исследования, они освещают вклад таких ученых, как Майкл Редди, который ввел “Метафору проводника”, и Джордж Лакофф, который разработал концептуальную теорию метафор, подчеркивая систематическое сопоставление исходной и целевой областей в человеческом познании.*

Ключевые слова: *метафора, концептуальная метафора, лингвистическая теория, классическая теория, когнитивная характеристика, картографирование.*

THE SIGNIFICANCE OF CONCEPTUAL METAPHOR IN LINGUISTICS AND LITERARY STUDIES

Annotation. *The article discusses the significance of conceptual metaphor in linguistics and literary studies, focusing on its role as a cognitive and linguistic tool rather than a purely artistic or rhetorical device. Beginning with a discussion of traditional metaphor theories, it critiques classical views that limit metaphor to poetic and figurative language. Drawing on contemporary research, it highlights the contributions of scholars like Michael Reddy, who introduced the “Conduit Metaphor”, and George Lakoff, who developed conceptual metaphor theory, emphasizing the systematic mapping between source and target domains in human cognition.*

Keywords: *metaphor, conceptual metaphor, linguistic theory, classical theory, cognitive feature, mapping.*

Kirish. Hammamiz yaxshi bilamizki, o‘zbek tilida to‘rtta ma’no ko‘chishi mavjud bo‘lib, bular: metafora (tashqi o‘xshashlik), metonimiya (aloqadorlik), sinekdoxa (butun va qism) va vazifadoshlik (vazifadagi o‘xshashlik). Konseptual metafora haqida gap borishidan avval, albatta, oddiy metafora terminining